



O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKLARINI TASHKIL ETISH ZARURIYATI VA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Yo'ldosheva Iroda,

Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrasi o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston, Email: irodayuldosheva5@gmail.com

Tillayev Xurshidjon,

PhD, Toshkent moliya instituti dekan muovini

ORGANIZATION OF ISLAMIC BANKS IN UZBEKISTAN NEED AND DEVELOPMENT OPPORTUNITIES

Yo'ldosheva Iroda,

*Teacher of the "Banking" department of the Tashkent Institute of Finance,
Tashkent, Uzbekistan, Email: irodayuldosheva5@gmail.com*

Tillaev Khurshidjon,

PhD, Deputy Dean of Tashkent Financial Institute

JEL Classification: E5, E58

Annatotsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda islam banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlanirish imkoniyatlari, islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish imkoni, islam moliyasi darchalarini tashkil etish bo'yicha ishlar amalga oshirilish yo'llari, islam moliyasi asosida kreditlar berish muhokama qilingan va xulosalar shakllantirilgan.

Bugungi kunda islam moliyasi, islam bank tizimi dunyo bo'ylab rivojlanib kelayotgan va foizlarga asoslangan bank tizimini bartaraf etishning eng yaxshi varianti sifatida qaralmoqda. Islom moliyasi ko'p jihatdan dunyoviy bilimlardan farq qiladi ya'ni islom ta'limoti nafaqat shariat qonun qoidalarini balki iqtisodiy hayotni tartibga solish va turli xildagi iqtisodiy masalalarni yechishga yordam beradi. Islom moliyasining asosiy tamoyillaridan biri bu ribo va g'ararning taqiqlanishidir. Zamonaviy bank tizimida foyda foiz evaziga olinsa, unda sherikchilik asosida shakllanadi. Hozirgi kunda islom banki va moliyalashtirishning umumiylajmi global miqyosda 2,6 trillion dollardan oshdi va

2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,5 trln dollarga oshishi kutilmoqda [1]. Islomiy moliyalashtirishning o'sish ko'rsatkichlari uning kuchliligi va global miqyosda qabul qilinishini ta'minlaydi. Muhimi, 2008-yilda yuz bergan global moliyaviy inqiroz islom moliyasi va islom bank sohasiga katta zarar yetkazmaganligi islomiy moliya va islomiy bank tizimi asoslarini ogilona isbotladi.

Abstract: In this article, the necessity and development opportunities of Islamic banks in Uzbekistan, the possibility of introducing Islamic financing mechanisms, the ways of implementation of work on the establishment of Islamic finance windows, the granting of loans based on Islamic finance were discussed and conclusions were drawn.

Today, Islamic finance, the Islamic banking system, which is developing around the world, is considered the best option to eliminate the interest-based banking system. Islamic finance differs from worldly knowledge in many ways, that is, Islamic teachings help to regulate not only Sharia law, but also to regulate economic life and solve various economic issues. One of the

main principles of Islamic finance is the prohibition of riba and gharar. In the modern banking system, if profit is received in exchange for interest, then it is formed on the basis of partnership. Currently, the total volume of Islamic banking and financing globally has exceeded 2.6 trillion dollars, and by 2024 this indicator is expected to increase to 3.5 trillion dollars. The growth figures of Islamic finance ensure its strength and global acceptance. Importantly, the fact that the global financial crisis in 2008 did not cause significant damage to Islamic finance and Islamic banking proved the fundamentals of Islamic finance and Islamic banking.

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, islom iqtisodiyoti, islomiy banklar, mijoz, tijorat banklari, murobaha, mushoraka, muzoraba, sukuk, salam, istisna, islom fondlari, investorlar.

Key words: Islamic finance, Islamic economy, Islamic banks, customer, commercial banks, murabahah, musharakah, murobah, sukuk, salam, exception, Islamic funds, investors.

Kirish. Hozirgi kunda, islom moliyasi ko‘p jihatdan dunyoviy bilimlardan farq qiladi ya‘ni islom ta‘limoti nafaqat shariat qonun qoidalariga balki iqtisodiy-moliyaviy bilimlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiton aholisining asosiy qismini musulmonlar tashkil qilishiga qaramasdan, bugungi kunga qadar islom banklari va islomiy tamoyillarga asoslangan bank xizmatlarini aholiga taqdim qilinmayotganligi ushbu mavuzning dolzarb ekanligidan hamda sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator muammolar borligidan

dololat beradi. Shu boisdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekbrdagи Oliy Majlisga Murojaatnomasida "mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqtি-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi"[5] deb, ta'kidlagan edi.

Qur’oni Karimning eng so‘nggi suralaridan sanaluvchi “Moida” surasida aynan moliyaviy bilimlar to‘g‘risida yozilgan bo‘lib, kishilar o‘rtasidagi kelishuv muomalalari haqida quyidagicha bayon qilinadi: “Adolat va taqvo yo`lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo`lida hamkorlik qilmang”[3].

Islomiy banklar – Islom qonunlariga mos keladigan bank yoki moliyalashtirish faoliyati va uni islomiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali amalda qo‘llashdir. 2022-yil boshida islom banki va moliyalashtirishning umumiy hajmi global miqyosda 2,6 trillion dollardan oshdi va 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,5 trln dollarga oshishi kutilmoqda[4].

Islom moliyasining asosiy tamoyillaridan biri bu ribo va g‘ararning taqiqlanishidir[7]. Zamonaviy bank tizimida foyda foiz evaziga olinsa, unda sherikchilik asosida shakllanadi.

Material va metod. Mazkur mavzuda olib borilgan tadqiqot tahlili ikkita yo‘nalishga ajratilgan holda o‘rganildi. Birinchidan, islom banklari va islomiy bank tamoyillariga asoslangan bank xizmatlarini moliyalashtirish, ikkinchidan, islom banklarini moliyalashtirish manbalari va ularning hisobi.

1-jadval

Islomiy banklar boshqaruv tushunchasining ta’riflari

Mualliflar	Ta’rif
Kabir Hassan 2007	Islomiy banklar va moliya tizimi musulmonlar jamoasiga diniy jihatdan maqbul bo`lgan bir qancha bank xizmatlarini taklif qilmoqda va xizmat ko`rsatmoqda. Bundan asosiy maqsad, iqtisodiy farovonlikka erishish, iqtisodiy jihatdan o’sish, daromad va boylikni taqsimlash, pul qiymatining barqarorligiga erishishdan ibora.3xt[9].
Akbar Komijani 2018	Islomiy moliya sanoati so’nggi 20 yil ichida Osiyoda sezilarli darajada o’sdi. Yaqin Sharq va Osiyodan kelgan sarmoyadorlarning diniy e’tiqodlariga mos kelganligi sababli islomiy bank mahsulotlariga sarmoya kiritish tobora kengayib bormoqda. Osiyoning bir qancha hukumatlari va davlat organlarining say harakatlari bilan islom moliya bozorlarida investitsiyalar o’sganligini va iqtisodiy o’sishga erishilganligini ko‘rish mumkin[12].
Omar.M 2013	Islom bank ishi va moliya bozor iqtisodiyoti tizimidan ajralib turadi ya’ni islomdan kelib chiqadigan keng qamrovli axloq va axloqiy qadriyatlar tizimiga asoslanadi. An’anaviy moliyadan farqli o’laroq, islom moliyasi umumiyligi tamoyillarga asoslanadi, har qanday islomiy iqtisodiy yoki moliyaviy bitimlarni tartibga soluvchi ko’rsatmalarni tashkil etadi[8].
Altiby 2010	Islom bank ishi shariatga mos keladigan bank tizimidir va bu tizimning muhim xususiyati riboni qoralaydi. Shariat moliyaviy tavakkalchilik bilan savdo qilishni ham taqiqlaydi, chunki islomda qimor o`yini ta’qilanganadi. Musulmonlar harom hisoblangan bizneslarga sarmoya kirta olmaydilar ya’ni spirtli ichimliklar, islomga zid keladigan ommaviy axborot vositalarini ishlab chiqaradiganlar kabi[11].

Natijalar. Islom banklari an’anaviy banklarga qaraganda xavfsiz va iqtisodiy jihatdan bardoshlidir. 2008-yildagi global inqiroz islom bank ishi va moliya tizimiga keng imkoniyat ochib berdi. 2008-2009 yillarda islom banklari aktivlari 12,6% dan


31,8% ga o’sdi. 2016-yilda esa, umumiyligi aktivlari 1,88 trillion dollardan 2,1 trillion dollargacha o’zgarib turdi. 2018-yilga kelib, global miqyosda 3.4 trillion dollarni tashkil qilgan[2].



1-rasm. Islom banklari aktivlari

Umuman olganda 2008-2020 yillarda bank aktivlari sezilarli darajada o'sgan. Islom bank ishi o'z operatsiyalarida foizlarni olish va to'lashdan qochadigan va o'z operatsiyalarini islom iqtisodiyoti maqsadlariga erishishga yordam beradigan tarzda amalga oshiradigan moliyaviy vositachilik tizimidir.

Butun dunyoda islom banklari va islom tamoyillarga asoslangan bank xizmatlarini ko'rsatish tobora o'sib bormoqda. Lekin O'zbekiston aholisining aksariyat qismini musulmonlar tashkil qilishiga qaramasdan mamlakatda islom banklari bugungi kunga qadar ochilmagan.



2-rasm. Islomiy moliya tizimining vositachilik va tranzaksiyon bitimlar bo'yicha tasniflanishi

Islomiy banklar o'z faoliyatini ikki shakldagi bank tizimida amalga oshiradi [7]:

- 1) islom fiqhi me'yorlariga butkul muvofiq tizim (Pokiston, Sudan, Eron bank tizimlari);

2) davlat organi tomonidan alohida tartibga solinadigan va islomiy

banklar faoliyati an'anaviy banklar bilan bir qatorda faoliyat yuritadigan dualistik tizim

2-jadval

Islomiy bank mahsulotlari va vositalari shakllari[6]

Passiv amaliyotlar	Balansdan tashqari amaliyotlar	Aktiv amaliyotlar
Depozit mahsulotlar	Hujjatli amaliyotlar mahsulotlari	Moliyalashtirish mahsulotlari
1. Joriy hisob varaq: vadia va qarzi hasan. 2. Jamg'arma omonat: vadia va muzoraba. 3. Umumiyl va maxsus investision hisobvaraqlar: muzoraba	1. Akkreditiv: vakolat	1. Aylanma kapitalni moliyalashtirish: murobaha, salam, istijror. 2. Lizing: ijara, ijara val iqtino. 3. Eksport-importni moliyalashtirish: mushoraka, salam, murobaha. 4. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish: istisno'. 5. Loyihaviy moliyalashtirish: muzoraba, mushoraka, istisno' va ijara.

Munozara. Islom bank-moliya tizimini O'zbekistonda tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Jumladan, mamlakatimizda Islomiy bank xizmatlarni mijozlarga ko'rsatish uchun qonuniy-huquqiy baza shakllanmagan, shuningdek, ushbu soha bo'yicha yetarli darajada malakali kadrlarning yetishmasligi va aholining ishonchini qozonish qiyinligi kabi muommolar mavjud.

Bizning fikrimizcha, Islom bank-moliya tizimini mamlakatimizda joriy etishning afzal jihatlari quyidagilardan iborat:

– moliyaviy manbalarning real aktivlar bilan bog'liqligi tufayli islom bank-moliya institutlarining so'nggi global inqirozga birmuncha yaxshi bardosh bergenligi va shu sabab dunyo jamoatchiligining alohida e'tiboriga sazovor bo'lganligi;

– moliyaviy muassasalarining loyiha natijalariga bevosita bog'likligi ularning ishonchli va xatari kamroq bo'lgan investitsion loyihalarga sarmoya kiritishdan manfaatdorligi va mas'uliyatini oshirishi;

– o'zini oqlamaydigan darajadagi xatarga ega bo'lgan loyihalarni moliyalash qat'iy taqiqlanganligi.

3-jadval

Islom moliyasi tajribasiga ega moliyaviy muassasalar

Nº	Banklar	Aktivlar bo'yicha	Kapital bo'yicha	Aktivlar Jami	AQSh dollarida	Kapital Jami	AQSh dollarida
1	Milliy Banki	1	1	66,605	7,005	13,141	1,382
2	Sanoat Qurilish Bank	2	2	34,892	3,670	6,247	657
3	Asaka Bank	3	3	34,698	3,650	6,128	645
4	Ipoteka Bank	4	6	23,588	2,481	3,730	392
5	Agrobank	5	4	18,488	1,945	4,627	487
6	Xalq Bank	6	5	17,334	1,823	4,361	459
7	Qishloq Qurilish Bank	7	8	12,709	1,337	1,446	152
8	Hamkorbank	8	10	8,838	930	1,138	120
9	Aloqabank	9	9	7,342	772	1,396	147
10	Turonbank	10	11	5,979	629	1,091	115
11	Mikrokreditbank	11	7	5,890	620	1,625	171
12	Kapitalbank	12	14	5,483	577	653	69
13	Ipak Yo'li Bank	13	13	5,328	560	728	77
14	Invest Finance Bank	14	16	4,488	472	519	55
15	Orient Finans Bank	15	12	4,319	454	878	92
16	KDB Bank	16	15	3,895	410	592	62
17	Trustbank	17	17	3,317	349	518	54
18	Asia Alliance Bank	18	19	2,259	238	285	30
19	Davr Bank	19	21	1,416	149	202	21
20	Savdogar Bank	20	22	1,063	112	164	17
21	Turkiston Bank	21	23	1,031	108	147	15
22	Universal Bank	22	26	778	82	125	13
23	Ziraat Bank	23	20	776	82	280	29
24	Ravnaq Bank	24	24	609	64	130	14
25	Tenge Bank	25	28	364	38	116	12
26	Saderat Bank	26	18	359	38	326	34
27	Hi-Tech Bank	27	27	354	37	120	13
28	Poytaxt Bank	28	29	209	22	107	11
29	Madad Invest Bank	29	25	184	19	128	13
30	UzAgroExport Bank	30	30	133	14	83	9
	Umumiy			272,728	28,685	51,031	5,367

2018-yil 18- sentabr kuni Islom taraqqiyot banki va O'zbekiston hikumati o'rtaida 2018-2021 yillar davomida 13mlrd. mablag' ajratiladigan hamkorlik strategiyasi imzolandi.

Islom moliyasini tashkil etish va rivojlantirish uchun mobil bank xizmatlari , mijozlar va bank xodimlarining islom moliyasi negizlari hamda mahsulotlari haqidagi tushunchalari, zamonaviy banklar

bialan sog'lom raqobatni amalga oshirish kabi muhim jihatlat to'g'risida o'ylashimiz kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda islom banki va moliyalashtirishning umumiy hajmi global miqyosda 2,6 trillion dollardan oshdi va 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,5 trln dollarga oshishi kutilmoqda[10].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun hozirgi kunda faoliyat yuritib kelayotgan tijorat banklariga suyanibgina qolmasdan, islomiy bank xizmatlarini aholiga taqdim qilinsa iqtisodiyot yanada rivojlanadi, naqd pul mablag'lari banklar orqali aylanadi va inflatsiya kamayadi hamda aholi daromadlari ortadi. Islom bank-moliya tizimini mamlakatning diniy nuqtayi nazaridan hamda daromad keltirish nuqtayi

nazaridan ham islomiy bank xizmatlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir. Milliy iqtisodiyotning tarkibiga kiritish orqali nafaqat aholining turmush favonligi ortadi, ularning ehtiyoji qondiriladi, balki milliy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tarkibida ijobiyl o'zgarishlar ko`rsatilishini ko`rshimiz mumkin.

Islom moliysi va bank xizmatlarini amaliyotga tadbiq qilish uchun malakali kadrlarning borligi muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun oliygoh talabalarining bilimlarini boyitish maqsadida chet el universitetlariga yuborish, mavjud kadrlarni islom banklarida amaliyot o'tashlariga imkoniyat yaratib berish, barcha tijorat banklari qoshida islomiy xizmatlar darchalarini ochish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, www.president.uz
- 2.Islamic Finance & Markets, 2022
- 3.<https://quronvasunnat.uz/quron>.
4. Islamic Finance & Markets, 2022
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr
6. Aho Petri, 27.6.2017. Head of Institutional Sales Finland. Nordea Interview. Helsinki.
7. Angelo M. (2014) Islamic banking and finance in South-East Asia:
8. Omar M, (2013). Islamic Banking and finance
9. Alshater, M. M., Hassan, M. K., Khan, A., & Saba, I. (2020). Influential and intellectual structure of Islamic finance: 14(2), 339–365.
10. Ibrahim, M.H., Alam, N., 2018. Islamic economics and Islamic finance in the world economy. World Econ. 41 (3), 668–673
11. Amr M & Altiby Ahmed T(2010), Islamic Banking: How to manage risk and improve profitability?
12. Akbar Komijani and Farhad Taghizadeh-Hesary. Asian Development Bank Institute Kasumigaseki Building, 8th Floor 3-2-5 Kasumigaseki, Chiyoda-ku Tokyo 100-6008, Japan. 2018.